



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
VA BANDLIK VAZIRLIGINING
QARORI

O‘rta maxsus ta’lim va professional ta’lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlarning bazaviy tarif stavkalari miqdorlarini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-sonli “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” Farmoni, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” Farmonining 8-band “e” kichik bandi, 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorining 17-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-son qarori bilan tasdiqlangan O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risidagi nizomning 5-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-sonli “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” Farmoniga muvofiq, **2024-yil 1-oktabrdan** boshlab:

budjet tashkilotlarida ishlovchi tibbiyot xodimlari, shuningdek, maktabgacha, umumta’lim, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari va tashkilotlari, “Muruvvat” internat uylari, “Mehribonlik” va Bolalar uylari, bolalar sanatoriyalarida ishlovchi pedagog xodimlarning ish haqi miqdori — 15 foizga oshirilganligi;

budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori — 10 foizga oshirilganligi, mazkur bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan xodimlar bundan mustasno;

mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori — oyiga 1 155 000 so‘m etib belgilanganligi;

bazaviy hisoblash miqdori — 375 000 so‘m etib belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar tasdiqlansin:

O‘rta maxsus ta’lim va professional ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Oliy ta’lim muassasalari huzuridagi akademik litsey pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 1-^a ilovaga muvofiq;

Professional ta’lim tashkiloti pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 1-^b ilovaga muvofiq;

Akademik litseylar va professional ta'lim tashkilotlarining boshqa pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Akademik litseylar va professional ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 3-ilovaga muvofiq.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari:

bir hafta muddatda mazkur qaror va uning ilovalarini tasarrufidagi barcha ta'lim tashkilotlariga yetkazsin va zarur tushuntirish ishlarini olib borsin;

mazkur qarorning ilovalariga muvofiq ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog xodimlarining ish haqlarini qayta hisob-kitob qilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 30-noyabrdagi 39-q/q, 24-q/q-2-son qarori 2024-yil 1-oktabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari S.Buzrukxonov hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining o'rinbosari R.Turdiboyeva zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror tasarrufida akademik litseylar va professional ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

7. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.

**Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vaziri**



K. Sharipov

Toshkent sh.,
2024-yil "27" sentabr
36-8/8 — son

**Kambag'allikni qisqartirish va
bandlik vaziri**



B. Zaxidov

Toshkent sh.,
2024-yil "27" sentabr
18-8/8 — son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri



D. Kuchkarov

Toshkent sh.,
2024-yil "27" sentabr

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining
2024-yil "27" sentabrdagi 36-q/q, 18-q/q - son
qaroriga
1-ILOVA

**O'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari
mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari
MIQDORLARI**

2024-yil 1-oktabrdan

T/r	Lavozim nomlari	Akademik litsey o'qituvchisi	Kasb-hunar kolleji o'qituvchisi
1	Bosh o'qituvchi	3 874 702	3 660 105
2	Yetakchi o'qituvchi	3 660 105	3 448 755
3	Katta o'qituvchi	3 448 755	3 229 360
4	Oliy ma'lumotli o'qituvchi	3 229 360	3 015 183
5	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi	3 015 183	2 817 162

Izoh. Mazkur ilova Oliy ta'lim tashkilotlari huzuridagi o'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining
2024-yil “27” sentabrdagi 36-q/q, 18-q/q - son
qaroriga
1-a ILOVA

**Oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi akademik litsey pedagog xodimlari
mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari
MIQDORLARI**

**(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli
yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son qarorining 17-bandiga muvofiq)**

2024-yil 1-oktabrdan

T/r	Lavozim nomlari	Oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi akademik litsey o‘qituvchisi*
1	Bosh o‘qituvchi	4 674 285
2	Yetakchi o‘qituvchi	4 229 610
3	Katta o‘qituvchi	3 796 485
4	Oliy ma’lumotli o‘qituvchi	3 391 080
5	O‘rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchi	3 169 320

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-4910-son “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab Oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi akademik litsey pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lashda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi **ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarning tegishli xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash shartlari** qo‘llaniladi.*

*Bunda akademik litseylar pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi 275-son “Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich va yuqori sinflari o‘qituvchisi bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladi va o‘qituvchilarga chuqur o‘rganiladigan fanlar bo‘yicha amalda o‘tkazilgan darslar uchun **20 foiz ustamalar** qo‘llaniladi.*

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining
2024-yil "27" sentabrdagi 36-q/q, 18-q/q - son
qaroriga
1^b ILOVA

**Professional ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha
bazaviy tarif stavkalari
MIQDORLARI**

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli
"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot
strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid
davlat dasturi to'g'risida" Farmonining 8-band "e" kichik bandiga muvofiq)

2024-yil 1-oktabrdan

T/r	Lavozim nomlari	Professional ta'lim tashkiloti o'qituvchisi*
1	Bosh o'qituvchi	4 674 285
2	Yetakchi o'qituvchi	4 229 610
3	Katta o'qituvchi	3 796 485
4	Oliy ma'lumotli o'qituvchi	3 391 080
5	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi	3 169 320
6	Birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi ustasi	4 229 610
7	Ikkinchi malaka toifasiga ega bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi ustasi	3 796 485
8	Malaka toifasiga ega bo'lmagan oliy ma'lumotli ishlab chiqarish ta'limi ustasi	3 391 080
9	Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ishlab chiqarish ta'limi ustasi	3 169 320

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli
"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga
e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmonining
8-band "e" kichik bandiga muvofiq, 2023-yil 1-apreldan boshlab:

professional ta'lim tashkiloti pedagoglarining bazaviy tarif stavkalari mos ravishda umumiy
o'rta ta'lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga;

professional ta'lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifasiga ega bo'lgan, malaka
toifasiga ega bo'lmagan oliy ma'lumotli hamda oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ishlab chiqarish
ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishincha umumiy o'rta ta'lim muassasasi birinchi va
ikkinchi malaka toifali o'qituvchisi, oliy ma'lumotli o'qituvchisi hamda o'rta maxsus ma'lumotli
o'qituvchisining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining
2024-yil "27" sentabrdagi 36-q/q, 18-q/q - son
qaroriga
2-ILOVA

**O'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlarining boshqa pedagog
xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari
MIQDORLARI**

2024-yil 1-oktabrdan

T/r	Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari:				
		oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus ma'lumotli
1.	Madaniyat va san'at kollejlari konsertmeysterlari	3 229 360	3 015 183	2 817 162	2 620 313	2 430 449
2.	Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi trener-o'qituvchisi	2 761 315	2 578 753	2 411 170	2 244 634	2 083 968
3.	O'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlarining psixologi*, tarbiyachisi	2 718 401	2 529 102	2 346 551	2 171 228	2 003 117
4.	Professional ta'lim tashkiloti trener-o'qituvchisi, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi instruktor-metodisti	2 433 684	2 273 379	2 127 678	1 982 879	1 843 159
5.	Akademik litseylarning to'garak rahbari	x	2 280 386	2 097 934	1 922 701	1 755 214
6.	O'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlarining konsertmeysterlari	2 224 391	2 073 010	1 926 939	1 786 688	1 652 074

*** 2024-yil 1-oktabrdan boshlab psixologlar bazaviy tarif stavkalari:**

professional ta'lim tashkilotida – 3 051 972 so'm (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qaroriga asosan);

Oliy ta'lim tashkilotlari huzuridagi akademik litseylarda – 3 051 972 so'm (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-4910-son qaroriga asosan) shuningdek, mazkur qarorga muvofiq, akademik litseylar psixologlariga **20 foiz** ustama qo'llaniladi;

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining
2024-yil "27" sentabrdagi 36-q/q, 18-q/q - son
qaroriga
3-ILOVA

**O'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlari
mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari
MIQDORLARI**

2024-yil 1-oktabrdan

T/r	Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari			
		I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
1.	Direktor	6 037 399	5 727 518	5 424 589	5 124 139
2.	Direktorning o'quv ishlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'rinbosari	5 727 518	5 424 589	5 124 139	4 828 253
3.	Chaqiriluvgacha tayyorgarlik rahbari	3 874 702	3 660 105	3 448 755	3 229 360
4.	Jismoniy tayyorgarlik rahbari	3 229 360	3 015 183	2 817 162	2 620 313
5.	Professional ta'lim tashkilotining katta ustasi	2 854 349	2 660 267	2 470 045	2 280 386
6.	Professional ta'lim tashkiloti o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mudiri	2 006 719	2 006 719	2 006 719	2 006 719

Izoh.

*O'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim tashkilotlarida bo'lim boshlig'i bazaviy
tarif stavkalarining miqdorlari ta'lim tashkilotida tahsil olayotgan o'quvchilar
kontingentidan kelib chiqqan holda belgilanadi:*

150 nafardan 300 nafargacha — 1 839 105 so'm.

301 nafardan 450 nafargacha — 2 006 719 so'm.

451 nafardan 600 nafargacha — 2 181 238 so'm.

601 nafar va undan ortiq — 2 362 652 so'm.

ТАҚҚОСЛАМА ЖАДВАЛ

Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари педагог ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш бўйича базавий тариф ставкалари миқдорлари

№	Лавозим номлари	Академик лицей ўқитувчиси*									Касб-хунар коллежи ўқитувчиси			Профессионал таълим муассасаси ўқитувчиси**		
		165-қарор бўйича 2023 йил 1 декабр	165-қарор бўйича 2024 йил 1 октябр	коэф	ихтисослаштирилган мактабларда 2023 йил 1 декабр	ихтисослаштирилган мактабларда 2024 йил 1 октябр	коэф	4910-қарор бўйича 2023 йил 1 декабр	4910-қарор бўйича 2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф
1	Бош ўқитувчи	3 369 306	3 874 702	1,15	4 064 867	4 674 285	1,15	4 064 867	4 674 285	1,15	3 182 700	3 660 105	1,15	4 064 867	4 674 285	1,15
2	Етақчи ўқитувчи	3 182 700	3 660 105	1,15	3 678 383	4 229 610	1,15	3 678 383	4 229 610	1,15	2 998 917	3 448 755	1,15	3 678 383	4 229 610	1,15
3	Катта ўқитувчи	2 998 917	3 448 755	1,15	3 301 057	3 796 485	1,15	3 301 057	3 796 485	1,15	2 808 139	3 229 360	1,15	3 301 057	3 796 485	1,15
4	Олий маълумотли ўқитувчи	2 808 139	3 229 360	1,15	2 948 543	3 391 080	1,15	2 948 543	3 391 080	1,15	2 621 898	3 015 183	1,15	2 948 543	3 391 080	1,15
5	Ўрта махсус маълумотли ўқитувчи	2 621 898	3 015 183	1,15	2 756 196	3 169 320	1,15	2 756 196	3 169 320	1,15	2 449 706	2 817 162	1,15	2 756 196	3 169 320	1,15

* Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги ПҚ–4910-сон қарорига мувофиқ 2021 йил 1 январдан бошлаб академик лицей педагог ходимлари меҳнатига ҳақ тўлашда Халқ таълими вазирлиги тизимидаги айрим фанларга ихтисослаштирилган мактабларнинг тегишли ходимлари учун белгиланган меҳнатга ҳақ тўлаш шартлари қўлланилади.

Бунда академик лицейлар педагог ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 21 декабрдаги 275-сон қарорига мувофиқ, умумтаълим мактабларининг бошланғич ва юқори синфлари ўқитувчиси базавий тариф ставкаларига тенглаштирилади ва ўқитувчиларга чуқур ўрганиладиган фанлар бўйича амалда ўтказилган дарслар учун 20 фоиз устамалар қўлланилади.

** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ-27-сон Фармониغا мувофиқ, 2023 йил 1 апрелдан бошлаб:

профессионал таълим муассасаси педагогларининг базавий тариф ставкалари мос равишда умумий ўрта таълим муассасаси педагогларининг базавий тариф ставкаларига; профессионал таълим муассасаси биринчи ва иккинчи малака тоифасига эга бўлган, малака тоифасига эга бўлмаган олий маълумотли ҳамда олий маълумотга эга бўлмаган ишлаб чиқариш таълими усталарининг базавий тариф ставкалари тегишинча умумий ўрта таълим муассасаси биринчи ва иккинчи малака тоифали ўқитувчиси, олий маълумотли ўқитувчиси ҳамда ўрта махсус маълумотли ўқитувчисининг базавий тариф ставкаларига тенглаштирилган.

Академик лицейлар ва касб-хунар коллежларининг бошқа педагог ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш бўйича базавий тариф ставкалари миқдорлари

№	Лавозимлар номи	Тариф ставкалари миқдорлари:														
		олий малака тоифали			биринчи малака тоифали			иккинчи малака тоифали			олий маълумотли			ўрта махсус маълумотли		
		2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф
1	Маданият ва санъат академик лицейлари ҳамда касб-хунар коллежлари концертмейстерлари	2 808 139	3 229 360	1,15	2 621 898	3 015 183	1,15	2 449 706	2 817 162	1,15	2 278 533	2 620 313	1,15	2 113 434	2 430 449	1,15
2	Олимпия захиралари коллежи тренер-ўқитувчиси	2 510 286	2 761 315	1,10	2 344 321	2 578 753	1,10	2 191 973	2 411 170	1,10	2 040 576	2 244 634	1,10	1 894 516	2 083 968	1,10
4	Академик лицейлар ҳамда касб-хунар коллежларининг психологи*, тарбиячиси	2 363 827	2 718 401	1,15	2 199 219	2 529 102	1,15	2 040 479	2 346 551	1,15	1 888 024	2 171 228	1,15	1 741 841	2 003 117	1,15
5	Спорт коллежи тренер-ўқитувчиси, олимпия захиралари коллежи инструктор-методисти	2 212 440	2 433 684	1,10	2 066 708	2 273 379	1,10	1 934 253	2 127 678	1,10	1 802 617	1 982 879	1,10	1 675 599	1 843 159	1,10
6	Академик лицейлар ва касб-хунар коллежларининг тўғарак раҳбари	х	х	х	1 982 944	2 280 386	1,15	1 824 290	2 097 934	1,15	1 671 914	1 922 701	1,15	1 526 273	1 755 214	1,15
7	Академик лицейлар ва касб-хунар коллежларининг концертмейстерлари	1 934 253	2 224 391	1,15	1 802 617	2 073 010	1,15	1 675 599	1 926 939	1,15	1 553 642	1 786 688	1,15	1 436 586	1 652 074	1,15

* 2024 йил 1 октябрдан бошлаб психологлар базавий тариф ставкалари:

академик лицейларда: 3 051 972 (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги ПҚ-4910-сон қарорига асосан) шунингдек, мазкур қарорга мувофиқ академик лицейлар психологларига 20 фоиз устама қўлланилади.

касб-хунар коллежларида: 3 051 972 (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон қарорига асосан);

Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари раҳбар ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш бўйича базавий тариф ставкалари миқдорлари

№	Лавозимлар номи	Тариф ставкалари миқдорлари											
		I гуруҳ			II гуруҳ			III гуруҳ			IV гуруҳ		
		2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф	2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф
1	Директор	5 249 912	6 037 399	1,15	4 980 450	5 727 518	1,15	4 717 034	5 424 589	1,15	4 455 773	5 124 139	1,15
2	Директорнинг ўқув ишлари, маънавий-маърифий ишлар ва ишлаб чиқариш таълими бўйича ўринбосари	4 980 450	5 727 518	1,15	4 717 034	5 424 589	1,15	4 455 773	5 124 139	1,15	4 198 481	4 828 253	1,15
3	Чакирилувгача тайёргарлик раҳбари	3 369 306	3 874 702	1,15	3 182 700	3 660 105	1,15	2 998 917	3 448 755	1,15	2 808 139	3 229 360	1,15
4	Жисмоний тайёргарлик раҳбари	2 808 139	3 229 360	1,15	2 621 898	3 015 183	1,15	2 449 706	2 817 162	1,15	2 278 533	2 620 313	1,15
5	Касб-хунар коллежининг катта устаси	2 482 043	2 854 349	1,15	2 313 276	2 660 267	1,15	2 147 865	2 470 045	1,15	1 982 944	2 280 386	1,15
6	Касб-хунар коллежи ўқув-ишлаб чиқариш устахонаси мудири	1 824 290	2 006 719	1,10	1 824 290	2 006 719	1,10	1 824 290	2 006 719	1,10	1 824 290	2 006 719	1,10

Изоҳ.

1. Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари таълимнинг ихтисослик йўналишлари бўйича бўлим мудирлари базавий тариф ставкаларининг миқдорлари бўлимда таълим олаётган ўқувчилар контингентидан келиб чиққан ҳолда белгиланади:

2023 йил 1 декабр	2024 йил 1 октябр	коэф
1 671 914	1 839 105	1,10
1 824 290	2 006 719	1,10
1 982 944	2 181 238	1,10
2 147 865	2 362 652	1,10

150 нафардан 300 нафаргача
301 нафардан 450 нафаргача
451 нафардан 600 нафаргача
601 нафар ва ундан ортик

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги ПҚ–4910-сон қарорига мувофиқ 2021 йил 1 январдан бошлаб ўрта махсус ва профессионал таълим муассасаларида таълим муассасаси раҳбарининг базавий лавозим маошига нисбатан бош ҳисобчининг базавий лавозим маоши 80 фоиз миқдорда, ҳисобчининг базавий лавозим маоши 60 фоиз миқдорда белгиланади.